



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ONA TILI DARSLARIDA LOYIHA TEXNOLOGIYASI NEGA KERAK?

To‘raqobilova Dildora Bo‘ri qizi
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi turaqobilovadildora@gmail.com

D. Avezova

Ilmiy rahbar: o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tezisdá ona tili darslarida loyiha texnologiyasidan foydalanishning o‘rni va ahamiyati, loyiha faoliyatining mazmun-mohiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: loyihalashtirish, o‘quv-loyihaviy faoliyat, loyiha bosqichlari, og‘zaki va yozma nutq, ijodkorlik, kreativ fikrlash.

Abstract

This thesis discusses the role and importance of using project technology in native language lessons, as well as the essence of project activities.

Keywords: design, educational and project activities, project stages, oral and written speech, creativity, creative thinking.

Ona tili ta‘limida loyiha texnologiyasidan foydalanish zamonaviy ta‘lim paradigmasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida asosiy e‘tibor bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilayotgani bois, ona tili darslarida ham



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ona tili fani o'quvchilarda nafaqat grammatik bilimlarni shakllantirish, balki nutq madaniyati, muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, loyiha texnologiyasi o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan, ularni izlanishga undaydigan va real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq topshiriqlar orqali o'qitish imkonini beradigan samarali vosita hisoblanadi.

An'anaviy pedagogik yondashuvlarda o'quvchi ko'pincha tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa uning mustaqil fikrlashiga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi mumkin. Loyiha texnologiyasi esa ta'lim jarayonini o'quvchi markaziga yo'naltiradi va uni faol subyekt sifatida shakllantiradi. Bunday yondashuvda o'quvchi ma'lumotni izlaydi, saralaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi. Natijada bilimlar chuqurroq o'zlashtiriladi va uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida bu yondashuv o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularning o'z fikrini erkin va asosli bayon etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha texnologiyasi o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishga asoslangan bo'lib, unda o'quvchilar muayyan muammo yoki mavzu doirasida mustaqil yoki guruh bo'lib ishlaydi. Bu jarayonda ular turli manbalar bilan ishlash, axborotni izlash va qayta ishlash, natijalarni taqdim etish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Masalan, o'quvchilar muayyan til hodisasini o'rganish jarayonida uni faqat nazariy jihatdan emas, balki hayotiy misollar asosida tahlil qiladi, matnlar yaratadi yoki tadqiqot olib boradi. Bu esa ularning tilni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, loyiha faoliyati o'quvchilarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Guruh bo'lib ishlash jarayonida ular o'zaro fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi, kelishuvga erishishni



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

o‘rganadi. Shuningdek, loyiha natijalarini taqdim etish jarayoni o‘quvchilarning nutq madaniyatini, auditoriya oldida chiqish qilish va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularni nafaqat ta‘lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham faol va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishning umumiy metodik asoslarini belgilab bersa-da, ular doimo o‘quvchilarning yetarli darajada faolligini ta‘minlay olmaydi. Loyiha texnologiyasi esa aynan shu jihatni kuchaytirib, o‘quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda yaratuvchi shaxsga aylantiradi. Shu bois, zamonaviy ona tili ta‘limida turli pedagogik texnologiyalarni loyiha texnologiyasi bilan integratsiyalash, ya‘ni ularni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘llaridan biri hisoblanadi.

6-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalar hamda loyiha texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayonlari o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish va uni ifodalash darajasida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Xususan, an‘anaviyroq pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitilib, shu yo‘sinda topshiriqlar bajarigan o‘quvchilarda ko‘proq qolipga tayangan yondashuv kuzatildi. Ular berilgan savollarga asosan darslik yoki o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan namunalar asosida javob berishga harakat qildi, mustaqil fikr bildirishda esa ma‘lum darajada qiynaldi. Bunday o‘quvchilarda fikrni erkin ifodalash, mavzuga ijodiy yondashish va o‘z nuqtai nazarini asoslab berish ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmagani sezildi.

Aksincha, loyiha texnologiyasi asosida topshiriqlar bajarilgan sinf o‘quvchilarida ancha yuqori faollik va mustaqillik namoyon bo‘ldi. Ular berilgan mavzu doirasida o‘zlari izlanib, ma‘lumot to‘plash, uni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida faol ishtirok etdi. Eng muhimi, bu o‘quvchilar o‘z fikrini bayon



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

etishda deyarli to'siqlarga duch kelmadi, nutqida erkinlik va ishonch sezildi. Loyiha natijalarini taqdim etish jarayonida ular o'z ishlari haqida batafsil ma'lumot bera oldi, savollarga mustaqil va asosli javob qaytardi hamda o'z pozitsiyasini himoya qila oldi.

Mazkur farqlar shuni anglatadiki, loyiha texnologiyasi o'quvchilarning nafaqat bilim olish darajasini, balki ularning nutqiy faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va ijodiy yondashuvini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bois, ta'lim jarayonida loyiha asosidagi faoliyatni kengroq joriy etish o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, loyiha texnologiyasi ona tili ta'limining mazmunini boyitadi, uni real hayot bilan uzviy bog'laydi va o'quvchilarning nutqiy, intellektual hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil izlanish olib borish va o'z fikrini asosli tarzda ifodalash ko'nikmalarini ham egallaydi. Natijada ta'lim jarayoni yanada samarali, mazmunli va o'quvchi ehtiyojlariga moslashgan holda tashkil etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997.
2. Guzeev V.V. Ta'lim natijalarini va ta'lim texnologiyasini rejalashtirish. M.: Xalq ta'limi, 2000. – 198-bet
3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
4. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.